

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORI HOLATI VA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI

Shadiyeva Shoxida Mirsalim qizi

O'zbekiston Respublikasi Bakn-moliya akademiyasi magistranti

ARTICLE INFO

ARTICLE HISTORY:

Received: 18.04.2025

Revised: 19.04.2025

Accepted: 23.04.2025

KEYWORDS:

*kambag'allik,
ijtimoiy yordam, kam
ta'minlanganlik,
ishsizlik, ijtimoiy
himoya, ijtimoiy kumak,
bandlik.*

ABSTRACT:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mehnat bozori holati va kambag'allik darajasi tahlil qilingan. Unda aholi kambag'alligini kamaytirish muammolari xorijiy va mahalliy olimlarimizning ilmiy izlanishlari keng o'rganilgan. Respublikamizda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, hududlar bo'yicha kambag'allik darajasini baholash natijalari va kambag'allik darajasi tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi mehnat bozori holati va kambag'allik darajasini kamaytirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalişlaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzillilagini kuchaytirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «... amalga oshirayotgan barcha o'zgarish va islohotlarimiz pirovard natijada yagona maqsadga – xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratish, odamlarning daromadi va farovonligini izchil oshirib borish, har bir insonga o'zining intellektual, kasb va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qaratilishi darkor» [1]. Respublikamizda aholining turmush darajasini oshirishga, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yangi ijtimoiy tizim shakllanib bormoqda. Ya'ni, iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida ushbu tizimni shakllantirishda ijtimoiy himoyaning faol vositasi bo'lgan mikrokreditlash-kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish respublika byudjeti mablag'laridan samarali foydalanishga asos bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan respublika byudjeti mablag'laridan oqilonqa foydalanish davlat xarajatlarini samarasiz sarf qilishning oldini oladi va aholi

boqimandaligini kamaytirib, ularning mikrokredit orqali uzoq vaqt oralig‘ida doimiy daromadga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu mulohazalar aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari asosida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Aholi kambag‘alligini kamaytirish muammolari xorijiy va mahalliy olimlarimizning doimo diqqat – e’tiborida bo‘lib kelgan. Ushbu masalalar L.I.Abalkin, V.V.Adamchuk, E.B.Atkinson, N.Barr, G.S.Bekker, D.J.Byukenen, D.Viks, K.G.Griffin, YE.N.Jilsov, S.V.Kadomseva, B.V.Rakitskiy, N.M.Rimashevskiy, L.S.Rjanitsina, D.Saks, J.Stiglits, K.Subbaro, L.Edxard, L.I.Yakobson kabi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida alohida o‘rin tutadi. Ular kambag‘allikni qisqartirish masalalarini umummetodologik nuqtai-nazardan tadqiq etib, o‘z mamlakatlarining milliy xususiyatlarini hisobga olib tadqiq etishgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Q.X.Abdurahmonov, X.P.Abulqosimov, L.M.Allaxverdiyeva, A.V.Vaxabov, N.Q.Zakirova, L.P.Maksakova, N.M.Majidov, SH.A.Mirzayev, F.E.Muradova, D.R.Rahimova, G.K.Saidova, R.A.Ubaydullayeva, B.X.Umurzoqov, M.A.Xakimova, R.R.Xasanov, P.Z.Xoshimov [2], [3], [4], [5], [6], [7], [8] ilmiy tadqiqotlarida aholi kamta’minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish masalalarini o‘rganilgan

Metodologiya. Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari asosida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot uslublarini tashkil etdi, bundan tashqari analiz, sintez, guruhlach, taqqoslach, grafik, iqtisodiy-statistik uslublar, hamda kompleks tizimli yondachuvdan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonning mehnat bozori va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ko‘rsatkichlar 2020–2024 yillar davomida sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu davrda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, mehnat bozorini rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar samarali bo‘ldi. Biroq, bu yo‘nalishdagi masalalar hali ham murakkab va davom etuvchi jarayonni talab qiladi. Ushbu tahlilda O‘zbekiston mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari, kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari va bu borada amalga oshirilgan choratadbirlarning samaradorligi haqida kengroq ma’lumot beriladi.

Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari 2020-2024 yillar davomida jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. O‘zbekistonning doimiy aholi soni har yili oshib borgan. 2020 yilda

34.22 million kishini tashkil etgan aholi soni 2024 yilga kelib 36.50 million kishiga yetdi. Aholining o'sishi, albatta, mehnat bozorida yangi ishchi kuchining talabini yanada oshirdi. Aholining o'sishi, bir tomondan, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashni talab qilsa, boshqa tomondan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Biroq, doimiy aholi sonining ortishi bilan birga, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilma tizimining ham barqaror rivojlanishi zarur.

2020–2024 yillar davomida O'zbekistonning mehnat yoshidagi aholi soni 22.05 million kishidan 23.40 million kishiga oshdi. Bu esa, yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirdi va shuningdek, yangi ish o'rnlari yaratish va ularni malaka oshirishga ehtiyojni ko'rsatdi. Yoshlar orasida ishga joylashish darajasi, ta'lim tizimining samaradorligi va ularning kasbiy malakalari mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Bunda, yoshlar va ayollarni o'z ishini tashkil etish va ijtimoiy himoya dasturlari orqali bandlikni oshirishga qaratilgan yangi siyosatlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2020-2024-yillar)

T/R	Ko'rsatkich	20	20	20	20	20
		20	21	22	23	24
1	Doimiy aholi soni (ming)	34, 220	34, 750	35, 320	35, 870	36, 500
2	Mehnat yoshidagi aholi soni (ming)	22, 050	22, 300	22, 800	23, 100	23, 400
3	Iqtisodiy faol aholi (ming)	15, 500	15, 800	16, 200	16, 500	17, 000
4	Bandlar - jami (ming)	13, 800	14, 300	14, 800	15, 200	15, 700
5	Iqtisodiy nofaol aholi (ming)	6,5 50	7,0 00	7,5 00	7,9 00	8,3 00
6	Ishsizlik darajasi (%)	9.2	8.5	8.2	7.9	7.5
7	Kambag'allik darajasi (%)	14. 5	13. 8	12. 5	11. 0	8.9
8	Kambag'allik soni (ming)	4,9	4,7	4,4	3,9	3,2

		58	94	15	48	50
--	--	----	----	----	----	----

Iqtisodiy faol aholi soni 2020 yildan 2024 yilgacha 15.50 million kishidan 17.00 million kishiga oshdi. Bu, O'zbekiston mehnat bozorining faollahganini ko'rsatadi. Ammo, mehnat bozorida yuzaga kelgan muammolar ham bor, jumladan, ish o'rinalining etishmasligi, malakali ishchi kuchining yetishmasligi, shuningdek, ayrim mintaqalarda bandlik darajasi pastligi. O'zbekistonning ayrim hududlarida, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinalini yaratish va aholini ishga joylashtirish masalalari hali ham dolzarbdir. Bu holat, bandlikni ta'minlash uchun yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish va jahon bozorlariga moslashish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mehnat bozorida bandlikni oshirish va ish o'rinalini yaratish masalalari, ayniqsa, yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash borasida dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston bandlik darajasini oshirishga qaratilgan ko'plab dasturlarni amalga oshirdi. 2020 yilda bandlar soni 13.80 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu raqam 15.70 million kishiga yetdi. Bu ijobjiy o'zgarish, lekin mehnat bozoridagi talab va ta'minot o'rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun, ayniqsa, qishloq joylarida va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruuhlar o'rtasida bandlikni yanada oshirish zarur. Bandlikni yanada oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy nofaol aholi sonining o'sishi, asosan, pensiya yoshidagi fuqarolar, o'qishni davom ettirayotgan yoshlar va ba'zi hollarda mehnat bozorida faoliyat yuritmayotgan ayollarni anglatadi. 2020 yildan 2024 yilgacha iqtisodiy nofaol aholi soni 6.55 million kishidan 8.30 million kishiga oshdi. Bu ko'rsatkich, mehnat bozoriga jalb qilinmagan va faoliyat yuritmaydigan guruhlarni aniqlashda, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Iqtisodiy nofaol aholi sonining o'sishi, ayniqsa, yoshlar va ayollar o'rtasida ijtimoiy himoya va malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Bu holat, ta'lim tizimining sifatini oshirish, kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish va ishga joylashtirishni osonlashtirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni kengaytirishni talab qiladi. Ayniqsa, ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qilish va ularni ish bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlar zarur.

Ishsizlik darajasi 2020 yilda 9.2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, bu ko'rsatkich 7.5% ga tushdi. Bu islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Ishsizlikning kamayishi, asosan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinalini yaratish va

ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, ishsizlikni qisqartirishda mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish va malakali ishchi kuchi yaratish bo‘yicha davlatning amalga oshirgan islohotlari katta ahamiyatga ega.

Kambag‘allik darajasi ham sezilarli darajada kamaydi. 2020 yilda kambag‘allik darajasi 14.5% bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 8.9% ga pasaygan. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari, ayniqsa, qishloq joylarida ijtimoiy yordamlar va infratuzilma rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar samarali bo‘ldi. Kambag‘allikning kamayishi, O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samarasidir.

Kambag‘allikni qisqartirishning asosiy mexanizmlaridan biri – bu ijtimoiy yordam dasturlarini amalga oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minalashga qaratilgan dasturlardir. O‘zbekiston hukumati, kambag‘allikni qisqartirishda, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va qishloq joylaridagi aholiga ijtimoiy yordamlarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ijtimoiy yordam dasturlari, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ta’lim tizimining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, mikro va kichik biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga yordam berdi. Ayniqsa, qishloq va shaharlardagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi.

Kambag‘allikni kamaytirishda ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sohasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi, davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma va investitsion muhit orqali qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishda eksportni kengaytirish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning mehnat bozoridagi ko‘rsatkichlar va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohotlar, 2020-2024 yillar davomida aniq ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Ishsizlik darjasining kamayishi, bandlikning oshishi va kambag‘allik darjasining pasayishi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minalashda amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlarning natijasidir. Biroq, mehnat bozoridagi talab va ta’milot o‘rtasidagi tafovut, ayniqsa, yoshlar va ayollarni ishga joylashtirish, kasbiy malaka oshirish va mehnat bozorining talablariga mos keluvchi malakali ishchi kuchini tayyorlash kabi muammolarni bartaraf etish uchun qo‘srimcha strategiyalar zarur. Shuningdek, kambag‘allikni yanada qisqartirish, ijtimoiy yordamlar va iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining hududlar bo‘yicha kambag‘allik darajasining tahlili 2023-2024-yillarda mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish, bandlik, infratuzilma va hududlar o‘rtasidagi farqlarni aks ettiradi. Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, davlat dasturlari, va ijtimoiy ko‘maklar kambag‘allik darajasini pasaytirishda muhim rol o‘ynadi. Ayni paytda, barcha viloyatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash va kambag‘allikni yanada qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar davom etmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha kambag‘allik darajasini baholash natijalari (2023-2024-yillar)

T /R	Hudud	2023-yil Kambag‘allik darjası (%)	2024-yil Kambag‘allik darjası (%)
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13,6	10,8
2	Andijon viloyati	11,9	9,5
3	Buxoro viloyati	11,8	8,7
4	Jizzax viloyati	14,2	11,8
5	Navoiy viloyati	7,6	5,7
6	Namangan viloyati	10,4	7,6
7	Samarqand viloyati	10,5	7,5
8	Sirdaryo viloyati	13,8	11,3
9	Surxondaryo viloyati	10,6	9,3
10	Toshkent viloyati	10,2	8,0
11	Farg‘ona viloyati	10,1	8,6
12	Xorazm viloyati	14,1	11,9
13	Qashqadaryo viloyati	11,5	9,6
14	Toshkent shahri	7,9	7,3

Kambag‘allik, ayniqsa, qishloq joylarida, iqtisodiy inqirozlar, infratuzilmaning zaifligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining yetishmasligi, mehnat bozori imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar bilan bog‘liq. Shuningdek, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sharoitlar farqi mamlakatda kambag‘allikning turli darajalarda ifodalanganligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning har bir viloyatining o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va geografik xususiyatlari mavjud, bu esa kambag‘allikni qisqartirish uchun har bir hududda alohida strategiyalarni talab qiladi.

Shu bois, O‘zbekistonning barcha viloyatlaridagi kambag‘allik darajasini tahlil qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishi bilan bog‘liq omillarni aniqlash, kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega

O‘zbekistonning barcha hududlarida kambag‘allik darajasi 2023-2024-yillar orasida pasayish ko‘rsatilgan, bu mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy islohotlari samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. 2023-yilda kambag‘allik darajasi 13,6%-dan 7,9%-gacha o‘zgarib, 2024-yilda 8,9% ga tushgan, bu 4,7% ga pasayishni anglatadi. Aksariyat hududlarda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada kamaygan bo‘lsa-da, ba’zi viloyatlarda hali ham yuqori ko‘rsatkichlar mavjud. Bu farqlarni bartaraf etish uchun yanada kuchliroq chora-tadbirlar kerak bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2023-yilda 13,6% kambag‘allik darajasi bilan O‘zbekistonning eng yuqori ko‘rsatkichlariga ega hududi bo‘lgan. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 10,8% ga tushdi. Kambag‘allikni qisqartirishda hududda qishloq joylaridagi aholi bandligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish muhim rol o‘ynadi. Ammo, Qoraqalpog‘istonda kambag‘allik darajasi hali ham boshqa hududlarga nisbatan yuqori bo‘lib, regionning iqtisodiy o‘sishi va barqarorligini ta’minlash uchun qo‘sishma yordam zarur.

Andijon viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 11,9% bo‘lsa, 2024-yilda 9,5% ga tushdi. Bu 2,4% ga kamayishni anglatadi. Andijon viloyatidagi kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy dasturlar, tadbirkorlikni rivojlantirish va mehnat bozorini diversifikatsiya qilishga qaratilgan islohotlar asosiy rol o‘ynadi. O‘zbekistondagi yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lishi viloyatga iqtisodiy rivojlanishning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, ammo bu ham past darajadagi kambag‘allikni bartaraf etishga yetarli emas.

Buxoro viloyatida kambag‘allik darajasi 2023-yilda 11,8% bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 8,7% ga tushdi, 3,1% ga pasayishni ko‘rsatadi. Buxoro viloyatidagi o‘sish asosan qishloq hududlarida bandlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar orqali amalga

oshirilgan. Bu viloyatda kambag‘allikni qisqartirishdagi muvaffaqiyat ishlab chiqarish sektori va kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan.

Jizzax viloyatida kambag‘allik darajasi 2023-yilda 14,2% bo‘lsa, 2024-yilda 11,8% ga tushdi, bu 2,4% ga kamayishni anglatadi. Jizzaxda iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kambag‘allikni qisqartirishda samarali bo‘ldi. Biroq, Jizzaxning qishloq joylarida kambag‘allik darajasi hali ham yuqori bo‘lib qolmoqda.

Navoiy viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 7,6% bo‘lsa, 2024-yilda 5,7% ga tushdi. Bu 1,9% ga pasayishni anglatadi. Navoiy viloyati O‘zbekistonning sanoat va energiya sohalarida rivojlanish sur‘ati yuqori hududlardan biridir. Sanoatning o‘sishi va ish o‘rinlarining ko‘payishi kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘lgan. Ushbu viloyat, keng sanoat tarmoqlari bilan kambag‘allikni qisqartirishdagi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda.

Namangan viloyatida kambag‘allik darajasi 2023-yilda 10,4% bo‘lsa, 2024-yilda 7,6% ga tushdi. 2,8% ga pasayish kuzatildi. Namangan viloyatida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tadbirdorlikni rivojlantirish va mehnat bozorini diversifikatsiya qilishga qaratilgan islohotlar samarali natijalar berdi. Biroq, bu viloyatda ham kambag‘allikni to‘liq bartaraf etish uchun qo‘sishma iqtisodiy yordam va infrastruktura rivojlanishi kerak.

Samarqand viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 10,5% bo‘lsa, 2024-yilda 7,5% ga tushdi. Bu 3% ga pasayishni ko‘rsatadi. Samarqandda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy dasturlarni kuchaytirish, ayniqsa, qishloq joylarida turizm sohasining rivojlanishi va ish o‘rnları yaratish kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qildi. Samarqand viloyatida iqtisodiy o‘sish sur‘ati yuqori bo‘lib, bu hududda kambag‘allikni qisqartirishda eng yaxshi natijalarni ko‘rsata oldi.

Sirdaryo viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 13,8% bo‘lsa, 2024-yilda 11,3% ga tushdi. Pasayish 2,5% ni tashkil qiladi. Sirdaryoda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarali bo‘lgan, ammo bu viloyatda hali ham yuqori darajadagi kambag‘allik mavjud. Mehnat bozorini rivojlantirish va iqtisodiy faoliyatni oshirish uchun qo‘sishma islohotlar talab etiladi.

Surxondaryo viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 10,6% bo‘lsa, 2024-yilda 9,3% ga tushdi. Pasayish 1,3% ni tashkil qiladi. Surxondaryoda kambag‘allikni qisqartirishda qishloq joylaridagi infratuzilmani rivojlantirish va bandlikni oshirishga qaratilgan dasturlar yordam berdi. Bu viloyatda kambag‘allikning pasayishi muhim bo‘lsada, hali ham katta farq mavjud.

Toshkent viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 10,2% bo‘lsa, 2024-yilda 8% ga tushdi. Toshkent viloyatidagi iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi va ijtimoiy dasturlar kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynadi. Bu hududda kambag‘allik darajasi boshqa viloyatlarga nisbatan pastroq, ammo to‘liq bartaraf etish uchun qo‘sishimcha chora-tadbirlar kerak.


Farg‘ona viloyatida kambag‘allik darajasi 2023-yilda 10,1% bo‘lsa, 2024-yilda 8,6% ga tushdi. 1,5% ga kamayish kuzatildi. Farg‘ona viloyatidagi kambag‘allikni qisqartirishda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va ish o‘rinlari yaratish orqali ijtimoiy natijalar olish mumkin bo‘ldi. Ammo, ushbu hududda kambag‘allikni yanada kamaytirish uchun ko‘proq iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talab etiladi.

Xorazm viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 14,1% bo‘lsa, 2024-yilda 11,9% ga tushdi. Pasayish 2,2% ni tashkil qiladi. Xorazmda kambag‘allikni qisqartirishda qishloq joylaridagi ish o‘rinlarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar muhim rol o‘ynadi. Bu viloyatda kambag‘allikni qisqartirishning samarali natijalarini ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyatidagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 11,5% bo‘lsa, 2024-yilda 9,6% ga tushdi. Bu 1,9% ga pasayishdir. Qashqadaryo viloyatidagi kambag‘allikni qisqartirishda mehnat bozorini rivojlantirish va ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan islohotlar yordamida amalga oshirildi.

Toshkent shahridagi kambag‘allik darajasi 2023-yilda 7,9% bo‘lsa, 2024-yilda 7,3% ga tushdi. Toshkent shahridagi kambag‘allikning pasayishi nisbatan kamroq bo‘lsa-da, bu yerda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy yordamlar kambag‘allikni kamaytirishda rol o‘ynadi.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida kambag‘allik darajasi pasaymoqda, bu ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Shaharlar va qishloqlar o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish, ijtimoiy dasturlarni yanada kuchaytirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, hududlar o‘rtasidagi kambag‘allik darajasidagi farqlarni kamaytirish uchun qo‘sishimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Ayniqsa, past darajadagi kambag‘allikni bartaraf etish va iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta‘minlash uchun har bir viloyatda alohida iqtisodiy va ijtimoiy yordam dasturlari kerak bo‘ladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allik darajasi (2021-2024-yillar)

Dunyo bo‘yicha kambag‘allikni qisqartirish so‘nggi yillarda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirish uchun turli strategiyalar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Skandinaviya davlatlari, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar o‘z iqtisodiyotlarini mustahkamlash va kambag‘allikni kamaytirish uchun ta’lim tizimini yaxshilash, tibbiy xizmatlarga kirishni osonlashtirish, mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bunday yondashuvlar, kambag‘allikni qisqartirishda yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasida kambag‘allikni qisqartirish ko‘p hollarda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish orqali odamlarning salomatligi, ta’lim darajasi va umuman yashash sharoitlari yaxshilanadi, bu esa jamiyatdagi umumiy farovonlikni oshiradi. Shu bilan birga, kambag‘allikni qisqartirishning muhimligi, davlatlarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishiga xizmat qilishi bilan ham bog‘liqdir. O‘zbekiston ham jahon tajribasiga tayangan holda kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha o‘zining strategiyalarini ishlab chiqishda davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allik darajasi so‘nggi yillarda ijobjiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. 2021-yildan 2024-yilgacha kambag‘allik darajasining doimiy ravishda kamayib borishi, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy dasturlar va yashash standartlarining yaxshilanishi natijasi sifatida ta’riflanishi mumkin. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar va iqtisodiy o‘sish, xalqning farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kambag‘allikning shahar va qishloq joylaridagi farqi ham yildan-yilga kamaymoqda, lekin ba’zi mintaqalarda hali ham mavjud bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy tafovutlar barqaror ravishda davom etmoqda.

Qishloq joylari va shaharlar o‘rtasidagi kambag‘allik darajasidagi tafovut, mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarga to‘liq mos keladi. 2021-yilda shaharlarda kambag‘allik darajasi 13,9% bo‘lsa, qishloqlarda esa 19,8% ni tashkil etdi. Bu farq, ayniqsa, qishloq joylarida ish haqlarining pastligi, ishsizlikning yuqori darajasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirishning cheklanganligi va infratuzilmaning zaifligi bilan bog‘liq. Qishloqlarda mehnat bozoridagi raqobatni oshirish va ish o‘rinlarini yaratish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

2024-yilda bu farq kamaygan bo‘lsa-da (shaharlar: 7,8%, qishloqlar: 9,7%), barqarorlik saqlanib qolmoqda. Bu, shahar va qishloqlardagi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar samarasi bo‘lishi mumkin. Biroq, hali ham qishloq joylarida ishlash va turmush darajasini yaxshilash uchun qo‘srimcha chora-tadbirlar talab etiladi.

2021-2022 yillardagi o‘zgarish: 2021 yildan 2022 yilga qadar kambag‘allik darajasi 17% dan 14,1% ga kamaydi. Bu pasayish 2,9%ni tashkil etadi. Bunda, iqtisodiy islohotlar, davlat tomonidan amalga oshirilgan bandlikni ta’minlash va aholini qo’llab-quvvatlash dasturlarining ahamiyati katta bo‘lgan. Shuningdek, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, shuningdek, qishloq joylaridagi infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar, kambag‘allikning qisqarishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

2022-2023 yillardagi keskin pasayish: 2022 yildan 2023 yilga o‘tishda kambag‘allik darajasi 14,1% dan 11% ga kamaydi, bu esa 3,1% ga kamayishni anglatadi. Bu yilgi o‘zgarish ayniqsa sezilarli. 2022-2023 yillarda kambag‘allikning bunday keskin pasayishi, mehnat bozoridagi yangilanishlar, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan yangi dasturlar va ijtimoiy yordamlarning kengayishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining tashkil etilishi va bandlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar bu jarayonni tezlashtirdi.

2023-2024 yillardagi o‘zgarish: 2023 yildan 2024 yilga o‘tishda kambag‘allik darajasi 11% dan 8,9% ga tushdi. Bu yana 2,1% ga kamayishdir. 2023-2024 yillardagi bu o‘zgarish ham ijobiy bo‘lib, kambag‘allikni qisqartirishda amalga oshirilgan strategik islohotlarning natijasi sifatida baholanishi mumkin. Bu davrda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar, ayniqsa, qishloq joylarida amalga oshirilgan, natijada turmush darajasi va yashash sharoitlari yaxshilangani ko‘rinadi.

2022-2023-yillardagi sezilarli yaxshilanish, kambag‘allikni qisqartirishda alohida e’tiborga loyiqlimdir. Bu davrda amalga oshirilgan ijtimoiy dasturlar, mehnat bozorida bandlikni oshirishga qaratilgan islohotlar va iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan strategiyalar o‘z samarasini berdi. Kambag‘allik darajasining 3,1% ga kamayishi, ayniqsa, mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sish va xalqning farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

2023-2024-yillar davomida kambag‘allikning yana 2,1% ga pasayishi, bu jarayonning davom etayotganligini va davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar samarali ekanligini tasdiqlaydi. Bunda, qishloq joylariga yo‘naltirilgan dasturlar, yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy ta’siri katta rol o‘ynadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi doimiy ravishda kamayib bormoqda va bu ijobiy tendentsiya davom etmoqda. 2024-yilda kambag‘allik darajasi 8,9% ga tushib, 2025-yilda 6-7% atrofida bo‘lishi kutilmoxda. Biroq, qishloq joylari va shaharlardagi kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi farq hali ham mavjud. Bu farqni kamaytirish uchun qishloq joylariga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar, infratuzilma rivojlanishi va ish o‘rinlarini yaratishga doir dasturlarni kuchaytirish zarur.

Kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohotlar, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga yordam berishi mumkin. Kambag‘allikni yanada qisqartirishda ta’lim tizimi, mehnat bozoridagi malakali ishchi kuchini tayyorlash va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish mexanizmini takomillashtirish masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflarni keltirishimiz mumkin:

Davlatning kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy siyosat quyidagilarga qaratilishi zarur:

- a) davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ijtimoiy barqarorlikni saqlashga, aholi turmush darajasini oshishiga qaratilishi;
- b) iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati natijasida

ko‘pgina ijtimoiy ziddiyatlar, jumladan aholi daromadlari differensiatsiyasi obektiv o‘rganish;

v) makroiqtisodiy siyosatning soliq va davlat xarajatlari yordamida ijtimoiy keskinlikni pasaytirishni hisobga olishi va h.k.lar.

1. Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda o‘z□o‘zini boshqarish organlarining huquqlari ham kengaytirilishi lozim. Bu :

- odamlarning kuch va qobiliyatları to‘la-to‘kis faollashuvini ta’minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;

- aholi daromadlari va turmush darajasida asossiz farqlarga yo‘l qo‘ymaslik, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minkaydigan qatlamlarni shakllantirish;

-muhtoj aholi qatlaming davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish kabi tadbirlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M., Mirziyoyevning murojaatnomasi, 2019.
2. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish /O‘quv. qo‘l. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, TDIU, 2004.-159 b.;
3. Abulqosimov H. Ijtimoiy himoya //Jamiyat va boshqaruv, 2004, №3.-26 b.;
4. Allaxverdiyeva L. Aholini ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №10.-65 b.;
5. Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar.-T.: Sharq, 2003.-319 b.;
6. Zakirova N. Sovershenstvovaniye sistemi sotsialnoy zashiti naseleniye v usloviyakh sotsialno-oriyentirovannoy rinochnoy ekonomiki (na primere semey RUZ) avtoreferat dissertatsii. – T.: 2001.- 8 s.;
7. Xakimova M., Gulyamov R., Muradova Z. Mikrokreditovaniye: perspektivi razvitiya v Uzbekistane. //Ekonomicheskoye obozreniye, 2001, №2. - 4 s.;
8. Rahimova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo‘llanishi //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3.-40 b.

9. Saidova G. Sotsialnaya politika pravitelstva Uzbekistana v perexodnom periode: dostijeniye i problemi //Ekonomicheskoye obozreniye, 1998, №1.-15 s. va boshq.

